

# O'qish savodxonligi

I qism

2



**UO'K** 808.545(075.3)  
**KBK** 74.202.5ya72  
A 38

**U.B.Aydarova**

**O'qish savodxonligi:** Umumiy o'rta ta'lif makkablarining 2-sinfi  
uchun darslik. / **U.B.Aydarova** – Toshkent: "Novda Edutainment",  
2023. – 80 b.

### Taqrizchilar:

- Sh.Y.Muslimova** – Toshkent shahri 328-umumiyl o'rta ta'lif makkabining oliv  
toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;  
**M.I.Xo'jayeva** – Toshkent shahri 142-umumiyl o'rta ta'lif  
makkabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

### Shartli belgilar:



Yodda  
tuting



Guruh bo'lib  
ishlang



Savollarga  
javob bering



Diqqat bilan  
o'qing



Izohli  
lug'at



Tinglang



Bu qiziq!



Topshiriqni  
bajaring



Uyga  
vazifa

## Hurmatli o'quvchi!

Kitob o'qishda hikmat ko'p. Keng dunyoqarash va bilimga ega bo'lishda kitobning ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Kitob o'qish aqlni charxlaydi, so'z boyligini oshiradi, xotirani mustahkamlaydi, tasavvurni kengaytiradi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi va insonlarni yaxshilik qilishga undaydi.

Qo'lingizdagи kitob sizga chin ma'noda do'stdir. Darslikda berilgan hikoyalar, she'rlar, ilmiy-ommabop matnlar, badiiy asarlardan parchalar, xalq og'zaki ijodining nodir namunalari – barchasi sizning tevarak-atrof haqidagi bilimlaringizni kengaytirishga qaratilgan.

Aziz o'quvchi, ushbu darslik bilim cho'qqilarini egallashda yo'lingizni yorituvchi mayoq bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

***Yangi bilimlar sari olg'a!***

***Omad yor bo'lsin!***





I bo'lim

**Ona Vatan bag'rida  
baxtiyor avlod!**





Tushirib qoldirilgan so'zni topib o'qing.

Kindik qoni to'kilgan,  
Tug'ilib o'sgan diyor.  
Ona kabi mehribon,  
Yagona va betakror.  
Bag'rida biz quvnaymiz.  
Uni \_\_\_\_\_ ataymiz.

Qo'ygan so'zingizga tushuncha bering.



"Vatan" atamasi arabcha so'z bo'lib, "ona yurt" ma'nosini bildiradi. O'zbekiston – biz tug'ilib o'sgan joy, ajdodlarimiz umr kechirgan yurt, millatimiz yashaydigan davlat.



## Vatan

Vatan hamma xalqlar uchun juda azizdir. Har bir insonning kindik qoni to'kilgan, ulg'ayib kamol topayotgan joyi uning Vatani hisoblanadi. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan tuyg'usi barcha narsadan qadrlidir.

O'zbekiston – qadimdan ota-bobolarimiz yashagan maskan, xalqimizning tarixiy Vatani. Serquyosh, hur o'lkamizning poytaxti azim Toshkent

shahridir. Yurtimizning butun dunyoga dong'i ketgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi kabi qadimiy shaharlari bor. Diyorimizga kelgan ko'plab chet ellik sayyoohlar ona Vatanimiz tarixi, madaniy obidalari bilan tanishib, bir olam taassurotlar bilan o'z yurtlariga qaytadilar.

Har bir mustaqil davlat o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi, maydoni, mustahkam chegarasi, armiyasiga ega. Mustaqil O'zbekistonimiz ham o'zining davlat ramzлari, qudratli armiyasi, mukammal Konstitutsiyasi, dunyoda o'z o'rni va obro'-e'tiboriga ega mamlakatdir.

Biz bolalar o'z bilimimiz, a'lo xulqimiz, bor kuchimizni Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga sarflab, yurt ravnaqiga o'z hissamizni qo'shadigan komil inson sifatida voyaga yetishimiz zarur. Biz o'z Vatanimizni sevamiz va u bilan faxrlanamiz!



1. Vatan haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Ona Vatanimiz O'zbekiston haqida nimalar deya olasiz? Fikringizni bildiring.
3. Nima uchun Vatanimizni sevamiz?
4. Siz kelajakda Vatan obodligi, kelajagi uchun qanday hissa qo'shmoqchisiz? Fikringizni ayting.



davlat – mamlakat  
yurt – o'lka, diyor, makon, go'sha  
ravnaq – rivojlanish, gullab-yashnash,  
tarraqqiyot  
mukammal – kamchiligi yo'q,  
har jihatdan to'liq  
dong – shon-shuhurat, mashhurlik  
taassurot – kishi yoki narsa to'g'risidagi fikr



- 1.** Matndan *yurt, o'lka, diyor* so'zlari ishtirok etgan gaplarni topib o'qing.
- 2.** *Ravnaq, mukammal, dong, taassurot* so'zlari ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.
- 3.** Vatan haqidagi maqollarni o'qing va mazmunini tushuntirib bering.

Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas,  
Yurt qo'riganning yurti buzilmas.

Tug'ilgan yering – Vataning,  
Vataning – nomusing.

- 4.** Fikrni yakunlang.

"Men o'z Vatanim bilan faxrlanaman, chunki ..."



"Vatan" matnini o'qing va qayta hikoya qilib bering.



## Ona Vatan

Miltiqboy Xonnazarov

Dunyoda onam aziz,  
Onamday Vatan aziz.  
Bu olamda jon aziz,  
Jondan ham Vatan aziz.

Onam hamda Vatanni  
Ko'zimdayin asrayman.  
Ikkisin hurmatini,  
Yuragimda saqlayman.

Onajonim bag'rida,  
O'ynab-kulib yayrayman.  
Ona Vatan qo'ynida,  
Bulbul bo'lib sayrayman.

Kelajakda, albat – men,  
Ulug' olim bo'laman.  
Vatanimning dong'in men,  
Dunyoga tarataman.





Quyidagi rebusda qanday ibora yashiringanini toping.



~~T~~ ~~N~~  
~~RR~~ ~~K~~

O'ylab ko'ring, nima uchun "Vatan" so'zini "ona" so'zi bilan birgalikda qo'llaymiz?



1. "Ona Vatan" deganda nimani tushunasiz?
2. O'ylab ko'ring, she'r kimlar tilidan aytilgan?
3. Vatanimiz nomini dunyoga taratish uchun nima qilishni xohlaysiz? Fikringizni tushuntiring.



1. She'rni ifodali o'qing.
2. She'dan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni aniqlang.  
**Masalan:** dunyo-olam, ...
3. She'dan qofiyadosh so'zlarni toping.  
**Masalan:** asrayman-saqlayman, ...

# Mundarija

## I BO'LIM

Ona vatan bag'rida baxtiyor avlod!	4
1-dars. Vatanim – jannatmakon O'zbekiston	5
2-dars. Ona bitta, Vatan yagona	8
3-dars. Vatan ostonadan boshlanadi	11
4-dars. Maktabim – qutlug' makonim	14
5-dars. Toshkent – O'zbekiston poytaxti	17
6-dars. Serquyosh o'lka	20
7-dars. Yoshi ulug' shaharlarimiz	22
8-dars. Til – millat ko'zgusi	25
9-dars. Ochiq osmon ostidagi muzey	27
10-dars. Bo'lim yuzasidan takrorlash	29

## II BO'LIM

Kitob – noyob xazina, bilim – tunganmas boylik	31
1-dars. Kitob – beminnat do'st	32
2-dars. Kitob – bebaho boylik	35
3-dars. Kitob o'qigan bola	38
4-dars. Gulzor shahrining mittilari – I qism	41
5-dars. Gulzor shahrining mittilari – II qism	44
6-dars. "Uzum" hikoyasi	47
7-dars. Ilm – yorug'lik	49
8-dars. Kitobga sodiq bo'ling	53
9-dars. Bo'lim yuzasidan takrorlash	56

## III BO'LIM

Ixtiro va kashfiyotlarga boy olam	59
1-dars. Juda foydali ixtiro	60
2-dars. Kashfiyotchi bobolar	63
3-dars. O'z aksini ko'rish orzusi	66
4-dars. Yo'l ko'rsatuvchi mayoq	70
5-dars. Oshxona buyumlari	72
6-dars. Vaqt qadri	75

***veb-saytimiz: Zokirjon.com***  
***Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun  
kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.***

## ***Zokirjon Admin bilan***

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomeraga  
murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram  
orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445  
izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.  
Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob  
beriladi***

***2-sinf o‘qish savodxonligi I qism kitobini to‘liq  
holda olish uchun telegramdan yozing.***

***Telegram kanalimiz:***

***@Maktablar\_uchun\_hujjatlar***



### **DIQQAT!!!**

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik  
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin  
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga  
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT  
QILMANG.**